

QISHLOQ XO'JALIGIDA POLIZ MAHSULOTI XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH VA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'LLARI

Nurimbetov Timur Uzakbergenovich
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
xalqaro aloqalar bo'yicha prorektori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada poliz mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ularning eksport hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar atroflicha yoritilgan. Meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining asosiy tashqi bozorlari, eksport geografiyasi, eksportning dinamikasi va tarkibi chuqur tahlil qilinib, bu boradagi dolzarb masalalar hamda istiqbolli yo'naliishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Eksport hajmi, poliz, dinamikasi, mahsulot, geografiyasi, ishlab chiqarish, sifat, xavfsizlik, meva-sabzavot, tadbirkor, xo'jalik.

Аннотация: В этой статье подробно описаны усилия, направленные на обеспечение качества и безопасности польской продукции, а также увеличение объема ее экспорта. Подробно анализируются основные зарубежные рынки плодоовощной продукции и плодовоовощной продукции, география экспорта, динамика и состав экспорта, особое внимание уделено актуальным проблемам и перспективным направлениям в этой связи.

Ключевые слова: Объем экспорта, политика, динамика, продукт, география, производство, качество, безопасность, фрукты и овощи, предприниматель, экономика.

Abstract: This article provides a detailed overview of efforts to ensure the quality and safety of melon products, as well as to increase their export volume. The main foreign markets for fruits, vegetables and melon products, the geography of exports, the dynamics and composition of exports are analyzed in depth, with special attention paid to current issues and promising directions in this regard.

Keywords: Export volume, melon, dynamics, product, geography, production, quality, safety, fruits and vegetables, entrepreneur, economy.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda poliz mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish yo'naliishida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Uzoq muddat davomida qishloq xo'jaligi sohasida tub islohotlar o'tkazilib, ilg'or va zamонавиy texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan chora-tadbirlar poliz va oziq-ovqat sanoatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu o'z navbatida meva-sabzavot mahsulotlarini

yetishtirish, qayta ishslash, saqlash, qadoqlash va xorijga eksport qilishdagi yuqori natijalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Natijalar va munozara. Bugungi kunda ko‘plab tadbirkorlar, dehqon va fermer xo‘jaliklari ushbu jarayonlarni chuqur o‘rganib, amaliy tajriba to‘plamoqda. Ular uchun taqdim etilayotgan turli imtiyozlar va keng imkoniyatlardan samarali foydalanish natijasida eksport sohasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda [1]. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu borada yetakchi mavqega ega bo‘ldi.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga poliz mahsulotlarini eksport qilgan hududlar orasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi peshqadamlik qildi – 289,3 ming tonna. Davlat statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, bu borada keyingi o‘rnlarni Toshkent viloyati – 217 ming tonna va Samarqand viloyati – 180,1 ming tonna bilan egalladi. Qolgan hududlar bo‘yicha ushbu ko‘rsatkichlar quyidagicha taqsimlandi:

- Surxondaryo viloyati – 157 ming tonna;
- Xorazm viloyati – 144 ming tonna;
- Namangan viloyati – 141,5 ming tonna;
- Andijon viloyati – 106,8 ming tonna;
- Toshkent shahri – 89,1 ming tonna;
- Jizzax viloyati – 77,1 ming tonna;
- Buxoro viloyati – 67,6 ming tonna;
- Qashqadaryo viloyati – 49,3 ming tonna;
- Sirdaryo viloyati – 45,4 ming tonna;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 23,7 ming tonna;
- Navoiy viloyati – 10,6 ming tonna.

Hozirgi kunda Respublikamizda poliz mahsulotlarining turli xil navlarini yetishtirish, qayta ishslash, saqlash va xorijga eksport qilish borasida keng imkoniyatlar mavjud [2]. Biroq, bu salohiyatdan to‘liq va samarali foydalanilmayapti. Mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘i alohida o‘rin tutadi. Davlat statistika qo‘mitasining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida O‘zbekiston xorijiy davlatlarga umumiy qiymati 1,0 milliard AQSH dollariga teng bo‘lgan 1,6 million tonna poliz mahsulotlarini eksport qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga ortgan.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, mavjud adabiyotlar tahlili hamda poliz mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini oshirish bo‘yicha yuzaga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari chuqur o‘rganildi. Ushbu tahlillar natijasiga ko‘ra, eksport hajmini kengaytirish uchun xalqaro bozorlardagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga moslashish, sinov laboratoriyalarini ilmiy-uslubiy asosda tashkil qilish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Bu esa poliz

mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, xalqaro maydonda eksport hajmini sezilarli darajada ko‘paytirishga xizmat qiladi.

1-jadval

Respublika poliz mahsulotlari eksportining dinamikasi va tarkibi

Mahsulotlar	Eksport qilingan poliz mahsulotlarini hajmi (ming tonna)
Eksport hajmi	2024 yil
Meva va rezavorlar	2 054,2
Quritilgan meva va rezavorlar	335
Sabzavotlar	819
Piyoz	199,5
Karam	142
Pomidor	71
Uzum	218
Mayiz	73,6
Yeryong‘oq	18,3
Tarvuz-qovun	135,8

Shu bilan birga, jahon bozorida poliz mahsulotlariga qo‘yilayotgan sifat va xavfsizlik standartlari, organik poliz mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borishi, shuningdek, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlash poliz mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayonini yanada takomillashtirish uchun qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda.

O‘zbekiston bog‘dorchilik, sabzavot-polizchilik kabi qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlarida boy tajriba va yuksak ilmiy salohiyatga ega davlatlardan biri hisoblanadi [4]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda ushbu sohaning rivojlanishiga qaratilgan alohida e’tibor tufayli bu jarayon yanada aniq va yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Natijada meva-sabzavot, uzum, poliz ekinlari va kartoshka kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi barqaror o‘sib borib, ichki ehtiyojni to‘liq qondirish bilan birga, eksport salohiyati ham sezilarli darajada oshmoqda. Juda qisqa vaqt ichida o‘rik, olxo‘ri, gilos, uzum, yong‘oq, karam va boshqa ko‘plab meva va sabzavotlar eksport hajmi bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatoridan mustahkam o‘rin egallaganini yaqqol tasdiqlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston sharoitida yetishtirilayotgan eksportga mo‘ljallangan poliz mahsulotlarining sifati va xavfsizligini ta’minlash, ularning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirishdagi muammolar va ularning yechimlari yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda eksport uchun mo‘ljallangan poliz mahsulotlarini keng ko‘lamda yetishtirish, ularning xavfsizligini ta’minlash, xalqaro bozorlardagi texnik to‘siqlarni bartaraf etish, xalqaro standartlarga moslashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va eksport-import faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarning sifatsiz mahsulot uchun javobgarlik darajasini oshirish bo‘yicha muhim tavsiyalar ilgari surilgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-maydagi PF-5995-sonli “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
2. Muminov Najmiddin Shamsiddinovich, Odinaev Mirzamad Isaevich, Abdirayimov Azizbek Ro‘ziqul O‘g‘li, Rajabov Sardor Jumaboy O‘g‘li, (2021). Problems Of Quality Assurance And Export Potential Of Grapes. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(06), 38-44.
3. Хакимов, Д. В.У., Мамажонов, А.А., & Саттаров, М.О. (2020). Управление внутренним аудитом в соответствии с международными стандартами. Universum: экономика и юриспруденция, (4 (69)), 4-12.
4. Хакимов Д.В. и др. Улучшения потенциала национальной инфраструктуры качества и проблемы экспорта плодоовоощной продукции //Итоги и перспективы развития агропромышленного комплекса. – 2018. – С. 502-508.